

Yoshlar daftari - imkoniyatlar daftari



Yoshlar daftari - imkoniyatlar daftari

Bugun, Termiz shahridagi Amudaryo bolalar cogʻlamlashtirish oromgohida 1-sektorda joylashgan mahallalarda "Yoshlar daftari"ga asbob-uskuna uchun ariza yuborgan yoshlarning, istaklari amalda ijobiy hal etildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 312 - sonli qaroriga asosan Termiz shahridagi barcha mahallalarda "Yoshlar daftari"dagi 107 nafar yoshlarga oʻzini-oʻzi band qilish maqsadida tikuv mashinasi, payvandlash uskunasi, santexnika asboblari, inkubator, sartaroshlik jihozlari va asboblari, kompyuter jamlanmasi, pishiriq pechi hamda qurilishda ishlatiladigan asbob-uskunalar topshirildi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqib, ularga berilayotgan asbob-uskunalar hamda ajratilayotgan subsidiyalardan quvonchi cheksiz yoshlar Prezidentimizga oʻz minnatdorchiligini bildirishdi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

